




**UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

TEXNOLOGIK VA PROFESSIONAL TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN**



20-noyabr 2020-yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TEXNOLOGIK VA PROFESSIONAL
TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH,
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Respublika onlayn ilmiy-texnik anjuman
materiallari to'plami**

2020-yil 20-noyabr

Buxoro – 2020

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 – yil 7 – fevraldagi 56-Φ-sonli farmoyishi asosida 2020 – yil 20 – noyabr kuni Buxoro davlat universitetida o'tkazilgan “Texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to’plami, Buxoro - 2020.

“Texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar” Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to’plamiga ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan izlanuvchilar va tadqiqotchilar, professor-o’qituvchilar, magistrlar hamda talabalarning ilmiy ishlari kiritilgan.

Ushbu ilmiy-texnik anjumanning asosiy maqsadi texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, sohada mavjud muammolar va ularning yechimlari bo’yicha fikr almashish, ta’limning uzviyligini va uzluksizligi ta’minlash, texnologik va professional ta’limda zamonaviy o’quv adabiyotlari va dasturiy ta’lim vositalarini yaratish, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, texnologik va professional ta’limda muqobil energiya manbalariga oid bilim berish, ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish, ta’lim turlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini jadallashtirish, umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Texnologiya” fanini o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash borasida erishilgan yutuqlarni yoritish va muammolar yechimini topish, shuningdek, ta’lim tizimidagi hamkorlik borasida fikr almashish, mushohada yuritish, ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Anjuman materiallaridan professor-o’qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.

Tashkiliy qo’mita:

- | | | |
|-----|-------------------|--|
| 1. | O.X. Xamidov | Universitet rektori, rais; |
| 2. | O.S. Qahhorov | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | M.I. Daminov | O’quv ishlari bo’yicha prorektor, a’zo; |
| 4. | O’U. Rashidov | Moliya va iqtisod ishlari bo’yicha prorektor, a’zo; |
| 5. | S.Q. Qahhorov | Fizika kafedrasini professori, a’zo; |
| 6. | H.O. Jo’rayev | Fizika-matematika fakulteti dekani, a’zo; |
| 7. | E.M. Muxtorov | Pedagogika fakulteti dekani, a’zo; |
| 8. | G.T. Zaripov | I va IPKTB bo’limi boshlig’i, a’zo; |
| 9. | A.R. Jo’rayev | Texnologik ta’lim kafedrasini mudiri, a’zo; |
| 10. | Sh.H. Quliyeva | Texnologik ta’lim kafedrasini dostenti, a’zo; |
| 11. | D.A. Sayfullayeva | Texnologik ta’lim kafedrasini dostenti, a’zo; |
| 12. | Y.Y. Jamilov | Texnologik ta’lim kafedrasini o’qituvchisi, kotib; |

Ma’ul muharrir:

- | | |
|---------------------|--|
| A.R. Jo’raev | “Texnologik ta’lim” kafedrasini mudiri, p.f.f.d. (PhD) |
| Y.Y. Jamilov | “Texnologik ta’lim” kafedrasini o’qituvchisi |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------------|--|
| B. R. Adizov | pedagogika fanlari doktori, professor. |
| Sh.Sh. Olimov | pedagogika fanlari doktori, professor. |

Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning ilmiy saviyasi, mazmuni va ularning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir.

Buxoro davlat universiteti, 2020-y.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA SMART TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

A.R. Jo'rayev

BuxDU Texnologik ta'lim kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD)

S.I. Baxtiyorova

BuxDU 1-bosqich magistranti

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy bosqichida nafaqat klassik ta'lim texnologiyalari, balki elektron ta'lim ham qanoatlantira olmaydigan ehtiyojlar kuzatiladi. Ayni vaqtda elektron ta'lim tizimidan Smart (ingl. - aqilli, mushohadali, harakatchan) hamda Smart Education (aqilli ta'lim) ga o'tish jarayoni bormoqda. Bu konsepsiya ta'lim sohasining barcha jarayonlarini, shuningdek, bu jarayonda qo'llaniluvchi barcha usul va texnologiyalarni kompleks modernizatsiyasini mujassamlashtiradi. Smart konsepsiyasi ta'lim kesimida o'zi bilan birga, «aqilli taxta», «aqilli ekran», ixtiyoriy nuqtadan Internetga chiqish kabi texnologiyalarni shakllantiradi. Ushbu texnologiyalarning har biri kontentni ishlab chiqish jarayonini yangidan qurish, yetkazib berish va aktuallashtirish imkonini beradi. Natijada ta'lim olishni nafaqat sinfda, balki uyda, ish joyida, jamoat joylarida, dam olish joylarida ham amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bunda ta'lim jarayonini baholovchi asosiy element sifatida faol ta'lim beruvchi kontent maydonga chiqadi. Uning asosida vaqt va fazo tushunchalari to'sig'idan holi qiluvchi yagona repozitor yaratiladi.

Smart ta'lim konsepsiyasi - mavjud manbalarga tez moslashuvchanlik, multimedaning maksimal xilma-xilligi, tinglovchining saviyasi va talabi darajasiga tezkorlikda moslashuvchanlikdan iborat. Kompetentlikning uzluksiz rivojlanishi, bilimlarni doimiy o'sishi va yangilanib borishi zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sababi bilimni rivojlantirish uchun endi inson kapitalining ta'siri kamlik qila boshlaydi. Bu kabi masalalarni hal qilishda nafaqat ta'lim muhitining o'zini, balki ta'lim tizimining tarkibi, instrumentlari, usullari tubdan o'zgartirilishi shart. Analitik kompetensiyalar, kompleks muammolarni yechish mahorati, yangi g'oyalarni rivojlantiruvchi - innovatsion xususiyatlar, o'zaro kommunikatsiya madaniyati kabi bilimlarni takomillashtirish zarur. Chunki an'anaviy ta'lim parametrlari asosida bilim berish insonlarni Smart - jamiyat uchun tayyorlamaydi. O'z navbatida, Smart - texnologiyasiz, innovatsion faoliyat yuritib bo'lmaydi. Agar ta'lim shu yo'nalishda ortda qolsa, u tormozlanib, qotib qoladi.

Hozirgi kunda, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan o'quv darslarida, multimedia vositalaridan foydalangan holda, Microsoft Power Point yoki Macromedia Flash dasturiy paketlarida tayyorlangan taqdimotlarni qo'llash odatiy holga aylanib bormoqda, biroq shu bilan birga, ta'lim sohasiga shunday interfaol texnologiyalar kirib kelmoqdaki, ular slayd-shou turkumidagi taqdimotlarni siqib chiqarmoqda. Axborotlarni talabalarga yangi interfaol uskunalari (interfaol taxta - Smart Boards, interaktiv displey - Sympodium) yordamida uzatish, ma'ruzachiga dars jarayonining o'zida taqdimotlar yaratish

imkonini beradi. Interfaol Smart Boards taxtalariga maxsus markerlar yordamida yozish, o'quv materiallarini namoyish etish, ekrandagi tasvir ustidan yozma sharhlar berish mumkin. Shu bilan birga, interfaol Smart Board taxtasiga yozilgan ma'lumotlarni magnit tashuvchilarda saqlanib qolib, ularni bosib chiqarish, darsga kelmagan talabanning elektron pochtasiga yuborish amalga oshiriladi. Ma'ruza davomida Smart Board taxtasida yaratilgan o'quv materialini esa, o'rnatilgan videokoderga yozib olib, ko'p marta qayta qo'llanishi mumkin.

Albatta bugungi kunda interfaol smart taxtalar imkoniyatlaridan maksimal foydalanish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar (Smart Notebook, Bridgit, Synhron Eyes) ishlab chiqilgan. Mazkur dasturiy ta'minotlar har birining o'z imkoniyatlari mavjud. Masalan, Smart Notebook matnlar va obyektlar bilan ishlaydi, axborotlarni saqlaydi, yozma harflarni bosma harflarga aylantiradi. Bridgit dasturi taqdimotlarni tez va osonlik bilan butun dunyoning turli nuqtalaridagi hamkorlarga tarqatadi, o'z hujjatlariga taqrizlar oladi. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi chiqishidagi muhim pozitsiyalarini umumiy «ishchi stol»da ajratib ko'satishi bilan shu onning o'zidayoq, dastur real vaqtda, barcha konferensiya ishtirokchilari oynasida paydo bo'ladi. Synhron Eyes (sinxron ko'z) dasturiy paket yordamida o'qituvchi barcha o'quvchilarni kuzatib turishi, o'quvchilar ishchi monitorlarini ekranga chiqarishi, blokirovka qilishi, interfaol taxta yordamida o'quv materiallarini, darsliklarni, testlarni yuborishi va jarayonni nazorat qilishi mumkin.

Interfaol taxtalar bilan ishlash jarayonida barcha ishtirokchilarning diqqati konsentratsiyalanadi va ular o'quv materiallarini juda tez o'zlashtirishni boshlaydilar. Buning natijasida har bir ishtirokchining o'zlashtirish ko'rsatkichi oshib boradi. Yangi ta'lim texnologiyasini ta'limga joriy etilishi o'zi bilan birga, ta'lim sxemasini reproduktiv shakldan kreativ shaklga o'tishini ta'minlaydi. Zamonaviy Smart ta'limning o'z oldiga qo'ygan ikkita asosiy maqsadi mavjud bo'lib, ular:

1. Talabalarda bilim olish uchun zarur bo'lgan barqaror motivatsiyani yaratish.
2. Ijodiy yechimlar yordamida bilim o'zlashtirishning yangi shakli va instrumentlarini izlab topishdan iborat.

Qisqacha aytganda, Smart ta'lim - bu ta'lim muassasalari hamda professor-o'qituvchilar tarkibining umumiy standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida yagona Internet tarmog'i orqali ta'limni amalga oshiruvchi birlashmasidir. Buxoro davlat universitetida ham ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni qo'llash borasida qator loyihalar amalga oshirib kelinmoqda, jumladan o'quv jarayonlarini tashkil etishda moodle va Hemis nomli veb saytlar tashkil etilganligi haqida alohida to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Ushbu sayt bir nechta, bo'limlardan iborat bo'lib, ular orqali talabalar kafedra yangiliklari bilan muntazam tanishib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, sayt kutubxonasiga joylashtirilgan, kafedrada o'qitiladigan "Materialshnoslik", "Texnologiya va dizayn", "Texnik mexanika" kabi fanlardan darslik, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni mutolaa qilishlari va osonlik bilan ko'chirib olishlari mumkin.

HURMATLI BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI TALABALARI!

Respublika komissiyasining 2020-yil 12-noyabrdagi yig'ilishi qaroriga muvofiq barcha oliy ta'lim muassasalarida joriy yilning **16-noyabrdan** oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va reja-grafik asosida o'quv jarayonini an'anaviy shaklda davom ettirish belgilandi. Shu munosabat bilan Sizlarga universitetimizda 16-noyabrdan 1-kurs talabalari uchun o'quv jarayoni an'anaviy shaklda davom ettirilishini ma'lum qilamiz. Keyingi kurslar uchun o'quv jarayoni bosqichma-bosqich an'anaviy shaklda davom ettiriladi.

An'anaviy ta'limga kelish majburiy emas.

BuxDUning hududlardagi masofaviy ta'lim markazlari «ACCES POINT» da Masofaviy darslar "Moodle", "Hemis" hamda "ZOOM" platformalari orqali davom ettiriladi.

No	O'quv kursi	Ta'lim shakli	Boshlash muddati
1	1 kurs, magistr	Kunduzgi	02.11.2020 yil
2	1 kurs, bakalavr	Kunduzgi	16.11.2020 yil
3	1 kurs, bakalavr	Kechki	16.11.2020 yil
4	2 kurs, magistr	Kunduzgi	16.11.2020 yil
5	2 kurs, bakalavr	Kunduzgi	14.12.2020 yil
6	2 kurs, bakalavr	Kechki	14.12.2020 yil
7	3 kurs, bakalavr	Kunduzgi	21.12.2020 yil
8	4 kurs, bakalavr	Kunduzgi	23.11.2020 yil

1-semena		
1-juftlik	08-30	9-30
2-juftlik	09-40	10-40
3-juftlik	10-50	11-50

2-semena		
1-juftlik	12-50	13-50
2-juftlik	14-00	15-00
3-juftlik	15-10	16-10

3-semena (kechki)		
1-juftlik	16-20	17-20
2-juftlik	17-30	18-30

Talabaning ixtiyoriga ko'ra online ko'rinishdagi yoki an'anaviy ta'lim turini tanlash, an'anaviy ta'lim kimlar uchun tadbir etilishi yoki yotoqxonalar masalalari bo'yicha Universitetda Bosh shtab, barcha fakultetlarda shtablar tashkil etilgan. Hurmatli talabalar! Sizlardan karantin qoidalariga qat'iy rioya etgan holda o'quv jarayonida ishtirok qilishingizni so'raymiz!

Hozirgi kunda veb saytga kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan fanlarga doir bo'lgan virtual va video-animatsiyali laboratoriyalarni yuklash ishlar olib borilmoqda. Kelajakdagi orzularimiz esa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, ta'lim berish sifatini yanada takomillashtirishdan iborat. Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish bosqichlarida oliy ta'lim muassasalarining eng asosiy vazifalaridan biri talabalarni zamonaviy taraqqiyot g'oyalariidan unumli va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Parpiev, A.Maraximov Elektron o'quv uslubiy majmualar. Oliy ta'lim muassasalari uchun / –T.: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 144 b.
2. Solovov A.V. Virtualnye uchebnye laboratorii: nekotorye napravleniya i printipy razrabotki // Telematika, 2002: Sankt-Peterburg: SPbGITMO, Moskva: GosNII ITT «Informatika», 2002. – 366 s.
3. Жураев А.Р., Тешаева И.М. Методические основания оптимизации содержания предмета Технология // Проблемы науки, 30:6 (2018), С. 88-89.
4. Жураев А.Р., Махсудова М.Д. Педагогические основы обеспечения непрерывности при обучении предмету технологии // Проблемы педагогики. № 3 (35), 2018, С. 26–27.
5. Жураев А.Р. Метод эффективного использования технических средств обучения в организации учебного процесса в направлении «технологическое образование» // Вестник науки и образования. 2020, № 19-2 (97), С. 38-41.

МУНДАРИЖА

Кириш		4
О.Х.Хамидов	Технологик ва профессионал таълимни модернизациялаш етук мутахассислар тайёрлаш омили	5
О.С.Қахҳоров	Таълим тизимини модернизациялаш ва кадрлар тайёрлаш механизмини такомиллаштириш зарурати	7
О.А.Қўйсинов	Узлуксиз таълим тизимида узвийликни таъминлаш тараққиёт меъзони	9
К.Ж.Ризқулова, Ф.Ҳ.Ғаффаров	Педагогика коллежларида ўқув жараёнини ташкил этиш	12
1-ШҮЪБА. ТЕХНОЛОГИК ВА ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ ЎҚУВ АДАБИЁТЛАРИ ВА ДАСТУРИЙ ТАЪЛИМ ВОСИТАЛАРИНИ ЯРАТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ		
С.Қ.Қахҳоров	Таълим жараёнида замонавий ўқув адабиётлари ва дастурий таълим воситаларидан фойдаланиш	14
A.R.Jo'rayev	Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturlashtirilgan ta'lim vositalardan foydalanish	16
A.R.Jo'rayev S.I.Baxtiyorova	Oliy ta'lim muassasalarida SMART texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish	19
Э.И.Рузиев	Технология ўқитувчилари тайёрлашда графика фанларини ўқитишнинг ўзига хослиги	22
Э.Р.Ахмедов	Баклаврларни касбий фаолиятга тайёрлаш самарадорлигини оширишга имкон берувчи электрон таълим ресурсларини яратиш	24
Ш.Салохитдинов	Умумкасбий фанларини ўқитишнинг замонавий дидактик воситалари асосида ўрганишга концептуал ёндашув	26
О.А.Хамидов	Талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда мультимедиа технологиялари ва мультимедиали ўқув воситаларининг ўрни ва роли	28
М.А.Халмухамедова	Технологик таълим йўналиши талабаларини тайёрлашда ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланиш	30
С.Х.Қосимов	Ноананавий усулда “транспорт логистикаси” фанини ўқитишда интерфаол усуллардан фойдаланиш	34

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Адади 30 нусха. Ҳажми 293 бет. Формат А5. Буюртма 178. 2020.

Бухоро шаҳри, М.Иқбол кўчаси, 11. Тел.: 65-221-26-45.